




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI  
VAZIRLIGI HUZURIDAGI**



**Respublika  
Ta'lim Markazi**

**RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

**2020-2021-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM  
MAKTABLARINING 7-SINF O'QUVCHILARI UCHUN BOSQICHLI  
IMTIHON O'TKAZISH BO'YICHA INFORMATIKA VA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI FANIDAN METODIK TAVSIYA VA  
MATERIALLAR**



**Toshkent-2021**

Imtihon materiallari Respublika ta'limi markazining navbatdan tashqari ilmiy-uslubiy kengashida muhokamaga qoyilib, tavsiya qilindi (2021-yil 31-martdagi 1-son Ilmiy-metodik kengash qarori).

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 7-sinf o'quvchilari bosqichli nazorat imtihonini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiya va materiallarni tijorat maqsadda ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari metodbirlashmalari bosqichli nazorat imtihoni materiallariga 15-20% gacha o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

#### **Tuzuvchilar:**

- |                          |  |
|--------------------------|--|
| <b>A.I.Abdullajonov</b>  | Respublika ta'lim markazining informatika va axborot texnologiyalari fani metodisti                          |
| <b>B.I.Abdurazzakova</b> | Andijon viloyati Andijon shahar 37-sonli maktabning Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi |

#### **Taqrizchi:**

- |                      |   |
|----------------------|---|
| <b>B.R.Meliboyev</b> | Jizzax viloyati G'allaorol tuman XTB ga qarashli 80-umumiy o'rta ta'lim maktabi "Informatika va AT" fani o'qituvchisi |
|----------------------|---|

## **INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI**

### **7-SINF**

Mazkur metodik tavsiyada bosqichli nazorat imtihonini o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Shuningdek, nazariy savollarni ishlarini baholash bo'yicha mezonlar keltirilgan. Har bir bosqichli nazorat imtihon bileti umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 6-7 sinf Informatika va axborot texnologiyalari kurslarining bo'limlaridagi mavzularini qamrab olgan bo'lib, savollar 6-, 7-sinf (2017-yil), darsliklari asosida tuzilgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2020-2021 o'quv yilining 7-sinflarini tugatgan o'quvchilarning Informatika va axborot texnologiyalari fanidan egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarini aniqlash maqsadida bosqichli nazorat imtihoni bilet savollari nazariy hamda amaliy (kompyuter) usulda o'tkaziladi.

Har bir bosqichli nazorat imtihoni biletida 3 ta topshiriq bo'lib, 1 ta topshiriq nazariy va 2 ta topshiriq amaliy ish shaklidan iborat.

O'quvchiga tanlagan bilet topshiriqlarini bajarish uchun (60 minut) vaqt beriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Informatika va axborot texnologiyalari fani chuqurlashtirib o'qitiladigan maktab ma'muriyati o'quv dasturiga mos ravishda qo'shimcha savollar kiritishi mumkin. Shu sababli o'quvchilarga yechimlarni izohlash uchun qo'shimcha ravishda vaqt berilishi lozim.

Imtihonning har bir savoliga berilgan javob o'quvchi uchun «5» ballik reyting asosida baholanadi. Ballar umumlashtirilib, o'rtacha ball chiqariladi.

Masalan:  $5+4+3=12:3=4$

### Amaliy ish bo'yicha baholash mezonlari:

t/r	Topshiriqni yoritilishiga qo'yiladigan talablar	Ball
1	Topshiriq quyidagi bandlar bo'yicha to'liq bajarilgan bo'lsa: 1) topshiriq bajarilishi to'g'ri mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan; 2) har bir qadam xato va kamchiliklardan holi; 3) topshiriq asoslab izoh bilan bayon etilgan; 4) topshiriqqa mos ilovalar (jadvallar va hokazo) keltirilgan; 5) xulosa (javob) chiqarilgan.	5
2	Topshiriq bajarilgan, lekin quyidagi bandlardan bittasida kamchilik bo'lsa: 1) topshiriq bajarilishi to'g'ri mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan; 2) har bir qadam xato va kamchiliklardan holi; 3) topshiriq asoslab izoh bilan bayon etilgan; 4) topshiriqqa mos ilovalar (jadvallar va hokazo) keltirilgan; 5) xulosa (javob) chiqarilgan.	4
3	Topshiriq bajarilgan, lekin quyidagi bandlardan uchtasida kamchilik bo'lsa: 1) topshiriq bajarilishi to'g'ri mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan; 2) har bir qadam xato va kamchiliklardan holi; 3) topshiriq asoslab izoh bilan bayon etilgan; 4) topshiriqqa mos ilovalar (jadvallar va hokazo) keltirilgan; 5) xulosa (javob) chiqarilgan.	3
4	Topshiriq o'quvchi tomonidan tushunilgan, lekin uni hal etishda kerak bo'ladigan ma'lumotlardan to'g'ri foydalana olmagan. Topshiriqni yechishda kamchiliklar ko'pligidan to'g'ri yechimga erisholmagan, lekin topshiriqni yechishda keltirilgan ayrim to'g'ri mulohazalar yuritilgan.	2
5	Topshiriq o'quvchi tomonidan tushunilgan, bajarishga harakat qilingan, lekin bajarilmagan.	1

### Nazariy savollarni baholash mezonlari:

t/r	Topshiriqni yoritilishiga qo'yiladigan talablar	Ballar
1	O'quvchi berilgan savolga to'liq javob bergan va o'z fikrlari bilan boyitgan hamda texnik termin nomlarini kiritishda xatoliklarga yo'l qo'ymagan bo'lsa	5
2	O'quvchi berilgan savolga to'liq javob bergan lekin texnik termin nomlarini kiritishda xatoliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa	4
3	O'quvchi berilgan savolga qisman javob bergan va mavzuga oid o'z fikrlarini keltirgan bo'lsa	3
4	O'quvchi berilgan savolga javob bermagan lekin qisman javob berishga harakat qilgan bo'lsa	2
5	O'quvchi berilgan savolni ko'chirgan va umuman javob bermagan bo'lsa	1

## **Informatika va axborot texnologiyalari**

### **7-sinf**

#### **1-BILET**

1. MS Word matn muharririda yangi hujjat hosil qiling.

Quyidagi matnni kiriting. 16 shrift hajmidan foydalaning. Sarlavha Arial shrifti. Matnni 4 marta nusxalang. Tekkislang : birinchi matn o`rtaga, ikkinchisi chapga, uchinchisi o`ngga, to`rtinchisi esa o`rtaga.

#### **Internet**

Global Internet tarmog`i yordamida odamlar muloqot qilishlari, kerakli ma`lumotlarni “dunyoning narigi tomonida” bo`lsa ham topishlari mumkin.

2. Sakkizlik sanoq sistemasidagi  $54321_8$  sonining to`rtlik sanoq sistemasidagi ko`rinishida 1 dan katta raqamlarni o`chirib, hosil bo`lgan ikkilik sanoq sistemasidagi sonni sakkizlik sanoq sistemasida aniqlang.

3. Axborotlarni qayta ishlashning nechta turi mavjud?

#### **2-BILET**

1. MS Word matn muharririda yangi hujjat hosil qiling. Quyidagi jadvajni hosil qiling

No	Familiya	Ism	Sharifi	Tug`ilgan sanasi	Manili
1					
2					
3					
4					
5					

2. 3999 sonini Rim raqamiga o`tkazing.

3. Inson axborotlarni qayta ishlash uchun uni uzlukli ko`rinishga o`tkazadi. Axborotlarning bu kabi uzlukli ko`rinishi nima deb ataladi?

#### **3-BILET**

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjat yarating. Ixtiyoriy matnni yozing va ikkita ustunga bo`ling

2. Hisoblashni bajarishda triada kodlash usulidan foydalanib bajaring va natijani o`n oltilik sanoq sistemasida ifodalang.  $142_8 + 120_8$

3. “<https://www.uzedu.uz/>” sayti to`g`risida ma`lumot bering.

#### 4-BILET

1. MS Word matn muharririda yangi hujjat hosil qiling. Sahifaning parametrlarini o‘rnating: yuqori, pastki chet - 2 sm, chap - 3 sm, o‘ng - 1,5 sm. Formatni hisobga olgan holda matnni yozing (shrift hajmi - 14 punkt, Times New Roman shrifti).

Tarixdan.

“Bayt” nomi (bayt so‘zi BinarYTerm iborasining qisqartmasi – “ikkilik atama”) birinchi bo‘lib 1956 yilda V.Buxholz tomonidan IBM 7030 Stretch birinchi superkompyuterini loyihalashda ishlatgan.

2. “O‘zbekiston-mustaqil davlat” iborasida nechta bayt va bit axborot borligini aniqlang? (*Qo‘shirnoqlar hisobga olinmasin*).

3. Internet tarmog‘i kimlar tomonidan boshqariladi?

#### 5-BILET

1. MS Word matn muharririda yangi hujjat hosil qiling. Quyidagi jadvajni hosil qiling

№	O‘quvchining F.I.O.	Mashg‘ulot vaqti									
		mart									
		1	2	3	5	6	7	8	9	10	11
1		+	+	+	+	H	H	+	+	+	+
2		+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
3		+	+	H	H	+	+	+	+	+	+
4		+	+	+	+	+	H	H	H	H	H
5		+	+	+	+	+	+	+	+	+	+

2. O‘nlik sanoq sistemasida berilgan  $612_{10}$  sonini uchlik sanoq sistemasidagi ifodasida nechta 1 raqami qatnashadi?

3. Axborot xavfsizligi to‘g‘risida ma’lumot bering.

#### 6-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjat yarating. Quyidagi sonli ifodani yozing.


$$6\frac{1}{8} : \left( 14\frac{5}{12} - 3\frac{13}{24} \cdot \frac{4}{7} + \left( 3\frac{11}{12} - 2\frac{7}{12} \right) \right)$$

2. Ikkilik sanoq sistemasidagi  $101110_2 * 1011101_2 - 10101001110_2$  ifodaning qiymatini aniqlang.

3. Axborot tashuvchi vositalar to‘g‘risida ma’lumot bering.

## 7-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjatni oching va quyidagi sxemani yarating



2. Tartiblangan alifbo

“BUGUN” so‘zini kodlang.

3. Kompyuterdagi ma’lumotlarni virusdan himoyalash to‘g‘risida ma’lumot bering.

usulidan foydalanib

## 8-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjatni oching va to‘g‘ri chiziq hamda to‘rtburchak chizish amallaridan foydalanib robot rasmni yarating.
2. Hisoblang va ikkilik sanoq sistemasida tasvirlang.  $(9EF_{16} + 20_8) * 2_4$
3. Elektron pochta to‘g‘risida ma’lumot bering.

## 9-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjatni oching va quyidagi rasmni yarating



2. O‘n oltilik sanoq

ikkilik sanoq sistemasida ifodalang.

sistemasidagi  $ADA_{16}$  sonini


3. Internet Explorer to‘g‘risida ma’lumot bering.

## 10-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjat yarating. Ixtiyoriy matnни yozing va uchta ustunga bo‘ling.
2. Quyidagi sonlarni o‘shish tartibida joylashtiring:  $77_8$ ;  $100000_2$ ;  $F0_{16}$ ;  $100_{10}$ .
3. Modemlar to‘g‘risida ma’lumot bering.

## 11-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjat yarating. Quyidagi rasmni chizing.



2. Axborot sekundiga 6,75 Mb tezlik bilan uzatilmoqda. 15 minutda qancha hajmdagi axborot uzatiladi?

3. Web-brauzerlar to'g'risida ma'lumot bering.

## 12-BILET

1. MS Word matn muharririda yangi hujjat hosil qiling. Quyidagi jadvajni hosil qiling.

<b>OUTLOOK EXPRESS</b>	
<b>OYNANING CHAP QISMI</b>	<b>OYNANING ONG QISMI</b>
<b>KATALOGLAR:</b>	
<b>ВХОДЯЩИЕ</b>	Adresant tomonidan qabul qilingan xabarlarni o'z ichiga oladi
<b>ИСХОДЯЩИЕ</b>	Foydalanuvchi kompyuteridan provayderning pochta serveriga adresant tomonidan yaratilgan vaqtdan boshlab, etkazib berilgunga qadar yuborilgan xatlardan iborat
<b>ОТПРАВЛЕННЫЕ</b>	Barcha yetkazilgan elektron pochta xabarlarini o'z ichiga olgan pochta serveri
<b>УДАЛЕННЫЕ</b>	O'chirilgan elektron pochta xabarlarini o'z ichiga oladi
<b>ЧЕРНОВИКИ</b>	Tayyorlab qo'yilgan xatlardan iborat
<b>KONTAKTLAR:</b>	
Adreslar kitobida saqlanayotgan ma'lumotlarni olish huquqini beradi (electron pochta manzili, telefon raqamlari, ...)	
<b>BELGILANGAN XATLAR MAZMUNI</b>	

2. Quyidagi sonlarni kamayish tartibida joylashtiring:  $74_8$ ;  $100010_2$ ;  $70_{10}$ ;  $37_{16}$ .

3. Axborot hajmi va o'lchov birliklari haqida ma'lumot bering.



### 13-BILET

1. MS Word matn muharririda yangi hujjat hosil qiling . Hujjatda hoshiyalarni oʻrnating: Chapda: 3 sm, qolganlari har birida 2 sm. "Times New Roman" shriftini, oʻlchamini 18, qalin va oʻrtasiga tekislang. Quyidagi qatorni kiriting:

**“Endi men Microsoft MS Word matn muharririda ishlash asoslarini bilaman”**

2. Oʻn oltilik sanoq sistemasidagi  $6A590_{16}$  berilgan. Shu sonni oʻnlik sanoq sistemasidagi 12 ga boʻlganda hosil boʻladigan sonni sakkizlik sanoq sistemasida koʻrsating.
3. Web-brauzerlarning asosiy vazifalari toʻgʻrisida maʼlumot bering.

### 14-BILET

1. MS Word yangi hujjat  $d = \sqrt{(x_1 - x_2)^2 + (y_1 - y_2)^2}$  matn protsessorida formulani yozing. yarating. Quyidagi

2. Ikkilik sanoq sistemasida berilgan  $1101,01101_2$  sonning oʻnlik sanoq sistemasidagi ifodasini toping.
3. Internetning **www** xizmatidan foydalanish imkoniyatini beruvchi dasturlar haqida maʼlumot bering.

### 15-BILET

1. MS Word matn muharririda yangi hujjat hosil qilib sevimli shoiringizni sheridan toʻrt qator yozing.
2. Agar xizmatchilar hujjatlari 45 Mb boʻlsa va har bir xizmatchiga 1 varaq (*bir satrda 64 belgili 48 satr*) ajratilgan boʻlsa, u holda xizmatchilar soni nechta?
3. Web-sahifa va gipermatn bogʻliqligi haqida maʼlumot bering.

## 16-BILET

1. MS Word matn muharririda yangi hujjat hosil qiling. Quyidagi jadvajni hosil qiling

Rasm qo'yish	1. Komanda <i>Вставка - Рисунок</i> 2. Rasmni buferga nusxalash va keyin MS Wordga qo'shish: Ctrl + C va ctrl + V.klavishalar birikmasi
Rasm tahrirlash	Sichqoncha yordamida rasmga bosilsa, panel paydo bo'ladi «Работас изображением»
Вставка объекта MS WordArt	Komanda <i>Вставка - MS WordArt</i>
Asosiy avtofiguralar qo'yish	Komanda <i>Вставка - Фигуры</i>

2. Ikkilik sanoq sistemasida: velosipedchining tezligi  $V=10100_2$  km/soat bo'lsa,  $1111_2$  soatdan keyin qancha yo'l bosib o'tishini hisoblang va javobini o'nlik sanoq sistemasida yozing.

3. Proвайder to'g'risida ma'lumot bering.

## 17-BILET


1. MS Word matn protsessorida yangi hujjat yarating. Ixtiyoriy matn yozing. Birinchi qatorni Times New Romanshriftidada, ikkinchisini -Arial, uchinchisini - ComicSans MS va to'rtinchisini Impact shriftidada format qiling.

2. Sakkizlik sanoq sistemasidagi  $345_8$  va  $627_8$  sonlarni ko'paytirganda hosil bo'lgan sonni ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazing?

3. Internetda ma'lumotlarni izlash to'g'risida ma'lumot bering va shu bo'yicha amalda bajarib ko'rsating.

## 18-BILET

1. MS Word matn muharririda quyidagi ko'rinishdagi uy chizmasini hosil qiling.



2. O'nlik sanoq sistemasidagi  $0,325_{10}$  sonini to'qqizlik sanoq sistemasiga o'tkazing.

3. World Wide Web to'g'risida ma'lumot bering.

### 19-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjat yarating. Raqamlangan va markerlangan foydalanib quyidagi ro'yxatni yarating:

#### PIFAGOR

Samos Pifagorasi (miloddan avvalgi VI asr)

1. qadimgi yunon faylasufi,
2. diniy va siyosiy arbob,
3. Pifagorizm asoschisi,
4. matematik.

Pifagorga, masalan quyidagilar tegishli:

- butun sonlar va nisbatlarning xossalari,
  - Pifagor teoremasining isboti.
2. 4 Gb axborot 60 sekundda uzatilgan bo'lsa, axborot uzatish tezligini minutlarda aniqlang.
  3. Server bilan mijoz atamalarining farqini tushuntirib bering.

### 20-BILET

1. MS Word matn muharririda yangi hujjat hosil qiling. Quyidagi ifodanlarni yozing

$$1. 12 + \frac{1}{2} \leq 13 - x \quad 2. \left( 2\frac{3}{4} \cdot 4 + 5\frac{1}{6} : \frac{1}{2} - 10\frac{6}{9} \right) \cdot 9 \quad 3. \frac{3}{4}x + \frac{1}{6} = \frac{5}{6}$$

2. Magnitli disk sig'imi 360 Kb bo'lsa, unga "**Oz-oz o'rganib dono bo'lur**" iborasini necha marta yozish mumkin? (*Qo'shtirnoqlar hisobga olinmasin*)
3. Global va lokal tarmoqlarning o'zaro farqini tushuntirib bering.


### 21-BILET

1. MS Word matn muharririda yangi hujjat hosil qiling, ixtiyoriy gap tuzib WordART obyektidan foydalanib yozing, 5 ta nusxa ko'chiring. Har bir nusxaga turli formatlash usullaridan foydalanib o'zgartiring

2.  $A_{6_{16}}$  va  $75_8$  sonlar yig'indisini hisoblang. Natijani ikkilik sanoq sistemasida ifodalang.
3. Grafik axborotlarni kodlash haqida ma'lumot bering.

## 22-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjatni oching va quyidagi sxemani yarating.



2. Agar ekran sohasi 512x128 nuqtali va har bir nuqta 256 rangdan biriga ega bo'lsa, bu sohani saqlash uchun kerak bo'ladigan eng kam xotira hajmi (Kb)ni belgilang.

3. Axborot texnologiyasining tashqi omillariga misol keltiring.

## 23-BILET


1. MS Word-da yangi hujjat yarating. Sahifa sozlamalarini quyidagicha o'rning: chekka o'lchamlarini har tomondan 1 smdan qoldiring. Chizish usulidan foydalanib ixtiyoriy jadval yarating.

2. Agar disk hajmi 4,5 Mb bo'lsa, u holda **“Jannat onalar oyog'i ostidadur”** iborani diskka necha marta yozish mumkin? (*Qo'shtirnoqlar hisobga olinmasin*)

3. Uyingizdagi pochta qutisi bilan elektron pochta qutisi farqini izohlang.

## 24-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjatni oching va quyidagi sxemani yarating.



2. O'n oltilik sanoq sistemasida 2 xonali sonlar bir biridan ajratmay ketma-ket yozilsa, u holda hosil bo'lgan satrda nechta raqam hosil bo'ladi?

3. Elektron pochtaning oddiy pochta bajara olmaydigan qanday imkoniyatlari mavjud.

## 25-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjat yarating. Quyidagi ifodani yozing.

$$\frac{\sqrt[5]{x^2 + \frac{1}{x-1}} + 15}{x^2 \sqrt{x^2 - 1}}$$

2. O'nlik sanoq sistemasidagi  $15151_{10}$  sonining o'n beshlik sanoq sistemasidagi ko'rinishidagi toq raqamlar yig'indisidan juft raqamlar yig'indisi ayirmasini aniqlang?

3. Axborotni himoya qilish nima uchun kerak?

## 26-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjat oching. Namunaga muvofiq jadval yarating


F.I.SH	№ Kartochka	Javoblar	Baholar							

2. O'nlik sanoq sistemasidagi  $99999_{10}$  sonining o'n oltilik sanoq sistemasidagi ko'rinishidagi toq o'rindagi raqamlar yig'indisidan juft o'rindagi raqamlar yig'indisi ayirmasini aniqlang?

3. Axborot xavfsizligi va "elektron jinoyatchilik"lardan himoyalaniшни ta'minlovchi chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumot bering.

## 27-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjat yarating MS Word matn protsessorining shakllar panelidan foydalanib, quyidagi rasmni chizing.



2. Maktabda joylashgan kompyuter tarmoq orqali 1 Mb axborotni 32 minutda qabul qilib olgan. Ushbu axborotni olish tezligini aniqlang?

3. Kriptografiya to'g'risida ma'lumot bering.

## 28-BILET

1. MS Word matn muharririda yangi hujjat hosil qiling . Quyidagi matnni kiriting va ro'yxatlarni tartibga soling.

### Dars jadvali

#### Dushanba

- ❖ Rus tili
- ❖ Matematika
- ❖ Geografiya
- ❖ Texnologiya

#### Seshanba

- ❖ Informatika
- ❖ Botanika
- ❖ Fizika
- ❖ Matematika

#### Chorshanba

- ❖ Adabiyot
- ❖ Kimyo
- ❖ Musiqa
- ❖ Tarix

2. Agar disk hajmi 1,83 Mb bo'lsa, u holda “**Navro'z bahor bayrami**” iborani diskka necha marta yozish mumkin? (*Qo'shtirnoqlar hisobga olinmasin*)

3. Boot – viruslar to'g'risida ma'lumot bering.

## 29-BILET

1. MS Word matn muharririda yangi hujjatda quyidagi jadvajni hosil qiling

Formula qo'yish	Komanda Вставка – Формула
Formulalarni tahrirlash	Yaratilgan formulani tahrirlash uchun uni bosish kifoya, shunda formulalar muharriri yuklanadi. Formulani o'chirish uchun klaviaturadagi Delete tugmachasi bosiladi.

2. Ikkilik sanoq sistemasida hisoblang va taqqoslang:  
 $101,101_2 + 10111_2$  va  $110,01_2 + 11,011_2$
3. Elektron pochta qutisiga ega bo'lishning qanday imkoniyatlarini bilasiz?

## 30-BILET

1. MS Word matn protsessorida yangi hujjat yarating. Raqamlangan va markerlangan ro'yxatni yarating:

### **Darslarda nimalarni organdik**

- a. Fayllar va kataloglar bilan ishlash asoslari

*I. Yaratish*

*II. Nomini o'zgartirish*

*III. Nusxalash*

*IV. O'chirish*

2. 28800 bit/s tezlikda ishlovchi modem ikkita sahifadan 3600 bayt iborat matni qancha vaqtda uzatadi?
3. Internetdan kerakli axborotni topish uchun nimalarni bilish kerak?